

Ethnopedagogical Features Of Directing Future Primary Teachers To Scientific Activities

Inoyatova Zulfiya Hamdamovna

Associate Professor of the Department of
“Primary Education Pedagogy” of the Nizami State University of Education
Tel:+99897 830 02 77

Urinboyeva Umida Hamro qizi

1st year master's student of the Department of
“Theory and Methodology of Education and Training
(Primary Education)” of the Nizami State University of Education
umidaorinboyeva929@gmail.com Tel:+99894 075 46 76

Annotation

This article analyzes the content, significance and methodological foundations of the process of directing future primary school teachers to scientific activity. In the formation of scientific activity, the main goal is to develop scientific thinking, problem-solving, analysis and scientific conclusion competencies in students. In this direction, the methodological significance of the ethnopedagogical approach in enriching scientific activity in content is analyzed.

Keywords: scientific activity, research competencies, ethnopedagogical approach, pedagogical research, scientific and methodological potential.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish jarayonining mazmuni, ahamiyati va metodik asoslari tahlil qilinadi. Ilmiy faoliyatni shakllantirishda talabalarda ilmiy tafakkur, muammo qo'yish, tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish bosh maqsad sifatida qaraladi. Mazkur yo'nalishda etnopedagogik yondashuvning ilmiy faoliyatni mazmungan boyitishdagi metodologik ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy faoliyat, tadqiqot kompetensiyalari, etnopedagogik yondashuv, pedagogik izlanish, ilmiy-metodik salohiyat.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish-ularning kasbiy rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bugungi ta'lim jarayoni o'qituvchidan nafaqat metodik bilim, balki ilmiy izlanish olib borish ko'nikmasini ham talab qiladi. Ilmiy faoliyat bu ob'ektlar hodisaning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o'rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliyot tadqiqotlardan biridir.¹

Ilmiy faoliyatning shakllanishi talabalarda ilmiy muammo qo'yish, tahlil qilish, ilmiy metodlardan foydalanish, tajriba o'tkazish, natijalar chiqarish kabi kompetensiyalarni mustahkamlaydi. Bu jarayon ularni mustaqil fikrlaydigan, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qila oladigan, innovatsion yondashuvga ega pedagog sifatida tayyorlaydi. Ilmiy faoliyatning turlarini ko'rib chiqamiz:

Nazriy tadqiqot- g'oya va tushunchalar asosida ishlanadi.

Amaliy tadqiqot- maktab, sinf, pedagogik jarayonda o'tkaziladi.

Eksperimental tadqiqot- maxsus tajriba-metodlar sinovdan o'tkaziladi

Ijtimoiy-pedagogik tadqiqot-jamiyatlardagi ta'lim muammolari o'rganiladi.

Shuningdek, Shermuxamedova N.A ilmiy faoliyatni “ilmiy muammoni qo'yish, tadqiqot metodlarini tanlash, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish ilmiy xulosa chiqarishdan iborat tizim” deb ta'riflaydi.²

¹ Saidahmedov N.J. “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, 2010 (1-bob umumiy ta'rif)

² Shermuxamedova N.A “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, 2014 -325 b

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ilmiy-faoliyatini tashkil etish boshqarish va moliyalashtirishning barqaror tizmi yaratildi. Mamlakatda salohiyatli ilmiy maktablar yaratildi, ilmiy laboratoriya va kafedralar, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, vazirlik va idoralar hamda respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ekspert kengashlari shaklidagi ko'p tarmoqli ilmiy-tashkiliy infratuzilmalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Yurtimiz tarixida ilk "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunlar mazkur sohalarni tartibga soluvchi qonun osti hujjatlari tayyorlandi.³

Hozirgi kunda pedagogika sohasida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni malakali professor o'qituvchilarga birlashtirish va ilmiy faoliyatga yo'naltirish tizmi takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga talabalarning professor o'qituvchilarning xalqaro bazalardagi ilmiy nashrlar ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha o'quv-amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish belgilangan.⁴ Pedagogika yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlarni maktabgacha va maktab ta'lim tizimidagi ilmiy muammolarga yo'naltirish. Pedagogika sohasidagi ilmiy maktablarning yutuqlari va tajribalarini ommalashtirish. Shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilari tomonidan "Scopus" va "Web of Science" xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari salmog'ini oshirish.⁵ Ushbu belgilangan vazifalar pedagogika sohasidagi ilmiy izlanishlarni tizimli tashkil etish, amaliy muammolarga yo'naltirish hamda xalqaro ilmiy maydondagi faollikni kuchaytirish bilan chambarchas bog'lik bo'lganligi sababli, ushbu ishning konseptual asoslarini belgilab beradi.

Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish masalalari bugungi kunda jahonda keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Masalan, AQShning Nebraska shtati Linkoln universitetida, Yaponiyaning Vesseda universitetida talabalarni ilmiy-tadqiqotga yo'naltirish hamda ularning ilmiy, ijodiy fikrlashini o'sitirish ya'ni ijodiy-tanqidiy fikrlashga o'rgatish masalalari bo'yicha "Independent work" to'garagi tashkil qilingan. "Independent work" talabalarning ilmiy-faoliyatiga yo'naltiruvchi to'garaklar sifatida tashkil qilingan bo'lib, u to'garaklarda talabalarni bevosita ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish, iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni o'zi xohlagan yo'nalishlarga yo'naltirish masalalari bo'yicha ishlar olib borilmoqda.⁶

Ushbu jarayonda etnopedagogika ilmiy faoliyat mazmunini boyitishga yordam beruvchi manba sifatida xizmat qiladi. Etnopedagogika bu xalq pedagogikasi hisoblanib etnik guruhlarining tarbiya borasidagi tajribalari, oila, urug', avlod, millatning qadimiy qadriyatlarga ma'naviy, botiniy va zohiriy qarashlari haqidagi fandir.⁷ Talabalar ilmiy izlanish davomida xalqning tarbiyaga oid qadimiy tajribasi, urf-odatlar, odab-axloq tizmi va xalq og'zaki ijodi namunalaridan amaliy ilmiy material sifatida foydalanadilar. Xususan xalqning tarbiyasi, urf-odatlar va pedagogik merosi talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishini oshirishi, amaliy kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslanadi. Maqolada ilmiy faoliyat va etnopedagogik yondashuvning uyg'un qo'llanishi shuningdek bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-metodik salohiyatini mustahkamlab, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov o'z asarlarida ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlari haqida ham alohida fikr bildirib: "Xalqimiz tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina, bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim", - deydi.⁸

Shu nuqtai nazardan qaraganda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish jarayonida milliy merosga asoslangan etnopedagogik yondashuv nafaqat tarbiyaviy jarayonni boyitadi balki ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

³ Journal of Education, Ethics and Value. 02.02.2024 ISSN:2181-4392, -83 b

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-289-son 21.06.2022

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2025 yildagi PF-73-son "Pedagog kadrlar tayyorlash tizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

⁶ Лицман Г.Д. Научно-исследовательская деятельность как средство профессионально-квалификационного роста учителя, специальность 13.00.01- общая педагогика Екатеринбург, 2002 г. -212с.

⁷ Mutalipova M.J. Xalq Pedagogikasi-2015, -7 b

⁸ Karimov.I.A " Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik"-T O'zbekiston 1993.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish jarayonida asosiy urg'u ilmiy metodlar, ilmiy tafakkur va tadqiqot ko'nikmalarining shakllanishiga beriladi, etnopedagogika esa ushbu jarayonni mazmunan boyituvchi, milliy qadriyatlarga asoslangan ilmiy manba sifatida muhim o'rin tutadi. Shuningdek hozirgi axborotlashgan jamiyat sharoitida ilmiy faoliyatga e'tiborning oshib borayotganligi, bu faoliyat natijalarini "intellektual mulk" tarzida qadr topayotganligi va ilmiy bilishning namayon bo'lish shakllari va qonunlarini har tomonlama o'ragnish taqozo qiladi.⁹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Saidahmedov N.J. "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi",2010(1-bob umumiy ta'rif)
- 2.Shermuxamedova N.A "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi",2014
- 3.Journal of Education,Ethics and Value.02.02.2024 ISSN:2181-4392.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-289-son 21.06.2022
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2025 yildagi PF-73-son "Pedagog kadrlar tayyorlash tizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni //QMMB: 06/25//73/0389-son 29.04.2025-y.
- Лицман Г.Д. Научно-исследовательская деятельность как средство профессионально-квалификационного роста учителя, специальность 13.00.01-общая педагогика Екатеринбург,2002 г.-212с.
- 7.Mutalipova M.J. "Xalq Pedagogikasi",2015.
- 8.Karimov.I.A " Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik"-T O'zbekiston 1993.
- S.Valieva, K.Tulenova. "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi",2016.
- 10.Ilm-fan va ilmiy faoliyat <https://advice.uz>

⁹ S.Valieva, K.Tulenova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi 2016yil, -3 b